Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti Qushatov R. muallifligida tayyorlangan "Statistika" fanidan tuzilgan fan dasturiga (ichki)

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Statistika" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi talabalarga statistikaning metodi va amaliyoti sohasida chuqur kasbiy bilimlar va zaruriy o'quv malakasini shakillantirishdir.

Ushbu fan "Statistika" deb nomlanib, unda sizga statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va ro'li haqida chuqur bilimga va tasavvirga ega bo'lish; Statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalallarini har taraflama o`rganish; O'zbekistonda davlat statistikasining tashkil etilishi, uning "davlat statistikasi haqida"gi qonundan kelib chiqadigan vazifalari va huquqlarini bilish; statistik kuzatishning mohiyati, turlari dasturi – uslubiy va tashkiliy masalalarini o`rganish: Statiostik kuzatish malumotlarni svodklash va guruhlash hamda uning natijlarini statistik jadvallarda ifodalay olish; taqsimot qarorlarini tuzish va tahlil qilish usullarini egallash; Statistik ko'rsatkichlar, ularning turlari va shakillari taqqoslash yo'llari, makro va mikro iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida chuqur tasavurga ega bo'lish; tanlanma kuzatishning mohiyati, nazariy va amaliy masalalari tanlamaning reprezentantligini baholash yo'llarini bilish, ilmiy va tajribaviy gepotizalarni xisoblash to'g'risida tasavurga ega bo'lishni ta'minlash hamda ular asosida hulosalar chiqarish bo'yicha k'onikmalar xosil qilishdan iborat.

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo 'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalinishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti PhD **Amirov A.M.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURSLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № БД-60410600 2024 yil "10" 08	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

STATISTIKA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, Boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410600 – Bank ishi

Fan/modul kodi STAT1306	O‘quv yili 2025-2026	Semestr III	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	STATISTIKA	72	108	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarga statistikaning metodi va amaliyoti sohasida chuqur kasbiy bilimlar va zaruriy o‘quv malakasini shakillantirishdir. **Fanning vazifasi** - statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va ro‘li haqida chuqur bilimga va tasavvirga ega bo‘lish; Statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalallarini har taraflama o`rganish; O‘zbekistonda davlat statistikasining tashkil etilishi, uning “davlat statistikasi haqida”gi qonundan kelib chiqadigan vazifalari va huquqlarini bilish; statistik kuzatishning mohiyati, turlari dasturi – uslubiy va tashkiliy masalalarini o`rganish: Statiostik kuzatish malumotlarni svodklash va guruhlash hamda uning natijlarini statistik jadvallarda ifodalay olish; taqsimot qarorlarini tuzish va tahlil qilish usullarini egallash; Statistik ko‘rsatkichlar, ularning turlari va shakillari taqqoslash yo‘llari, makro va mikro iqtisodiy ko‘rsatkichlar haqida chuqur tasavurga ega bo‘lish; tanlanma kuzatishning mohiyati, nazariy va amaliy masalalari tanlamaning reprezentantligini baholash yo‘llarini bilish, ilmiy va tajribaviy gepotizalarni xisoblash to‘g‘risida tasavurga ega bo‘lishni ta’minlash hamda ular asosida hulosalar chiqarish bo‘yicha k‘onikmalar xosil qilishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**“Statistika” fanini predmeti va uslubi.**
	Statistikaning predmeti. Statistikacha tafakkur, statistik qonuniyatlar. Statistika uslubiyati. Statistikaning vujudga kelish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Statistika – ilm-fan tarmog‘i, amaliy faoliyat soxasi, raqamlarda ifodalangan ma’lumot (axborot), bilim yo‘nalishi.
M2	**Statistik kuzatish uslubiyati** Statistik kuzatish mohiyati va uning oldiga qo‘yiladigan talablar, kuzatish ob’yekti va sub’yekti. Statistik kuzatishni tayyorlash uslubiyati. Statistik kuzatish turlari. Hisobot, maxsus tashkil etiladigan kuzatish, biznes – tekshirishlar va ro‘yxatlar. Statistik kuzatish xatolari va ularni aniqlash yo‘llari.
M3	**Statistik jamlash va guruhlash.** Statistik jamlashning mazmuni va uni masalalari. Jamlash tushunchasini tor va keng ma’nolarda talqin etish. Statistik guruhlashning mohiyati va uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda ahamiyati. Guruhlash turlari. Atributiv va miqdoriy guruhlash. Oddiy guruhlash. Ko‘p o‘lchovli guruhlash va uning turlari: kombinatsion guruhlash; irearxik guruhlash. Guruhlash tuzish qoidalari. Guruhlash belgisi. Guruhlar soni. Guruhlar oralig‘i. Statistik tasniflash va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Statistik to‘plam tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganishda guruhlash usulini qo‘llash axamiyati.
M4	**Statistik jadval va grafiklar.** Statistik jadvallar. Jadval turlari va tuzish qoidalari. Grafiklar xakida tushuncha, statistikada ularning roli va ahamiyati. Grafiklarning turlari va elementlari. Chiziqli va yassi diagrammalar. Sektorli diagrammalar. Kvadrat va doyra shakldagi diagrammalar. Tasvirli (suratli) diagrammalar. Taqsimot qatori mohiyati va uni tarkibiy unsurlari. Taqsimot qatorlari turlari. Atributiv va variatsion qatorlar. Variatsion qatorlar turlari: diskret va oraliqli qatorlar. Taqsimot qatorlari grafiklari: gistogramma; poligon; kumulyata; ogiva. Statistik xaritalar. Jahon moliyaviy inqirozi jarayonlarini jadvallar va grafiklarda ifodalash. Asosiy tushuncha va atamalar.
M5	**Statistik ko‘rsatkichlar.** Statistik ko‘rsatkichlarning mazmuni va ahamiyati. Statistik ko‘rsatkichlarning turlari va tasnifi. Mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar. Nisbiy ko‘rsatkichlarning tasnifi. Nisbiy miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar. Milliy mahsulot va daromadlarning doiraviy aylanmasi – makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimining asosi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlarini tahlil qilishda qo‘llaniladigan halqaro standart ko‘rsatkichlar.
M6	**O‘rtacha miqdorlar.** O‘rtacha miqdorlarning mohiyati va ahamiyati. O‘rtacha miqdor turlari va ularni hisoblash tartibi. Arifmetik o‘rtacha xossalari. Arifmetik

	o‘rtachani «shartli moment» usulida hisoblash. Iqtisodiy hodisalarni o‘rganishda arifmetik o‘rtachani qo‘llash. O‘rtacha geometrik miqdor. Nisbiy o‘zgarishlar uchun o‘rtacha geometrikni aniqlash. Nisbiy o‘zgarish asosida o‘rtacha geometrik darajasini aniklash. O‘rtacha arifmetikning matematik xossalari. O‘rtacha garmonik. O‘rtacha kvadratik. O‘rtacha kub. Darajali o‘rtachalar. Tuzilmaviy o‘rta ko‘rsatkichlar. Mediana. Moda.
M7	**Variatsiya ko‘rsatkichlari.** Variatsiya mohiyati va uni o‘lchash zaruriyati. Variatsion kenglik. O‘rtachasi kvadrat tafovutning (dispersiya) va o‘rtacha kvadratik tafovut. Dispersiya va kvadratik o‘rtacha tafovut xossalari. Dispersiya va kvadratik o‘rtacha tafovut xisoblashning soddalashtirilgan usullari. Dispersiyalarni qo‘shish koidasi va uni bozor hodisalarini tahlil qilishda qo‘llash. Muqobil (alternativ) belgi dispersiyasi. Mutlaq o‘rtacha tafovut. Variatsiya koyeffitsiyentlari. Variatsiya ko‘rsatkichlarining optimal chegaralari. Konsentratsiyalanish, ixtisoslashish va monopollashtirish ko‘rsatkichlari.
M8	**Tanlama kuzatish.** Tanlanma kuzatish haqida umumiy tushuncha. Tanlanma reprezentativligi va uni ta’minlaydigan tanlash usullari. Tanlanma kuzatish xatolarini aniqlash. Tanlanmaning zaruriy miqdorini aniqlash. Tanlanma kuzatish ma’lumotlarini bosh to‘plamga tarqatish. Gipotezalarni statistik tekshirish asoslari. Taqsimot qonuni haqidagi gipotezani baholash. O‘rtacha miqdorlar haqidagi gipotezalarni tekshirish.
M9	**Korrelyatsion va regression tahlil.** O‘zaro bog‘lanishlar haqida tushuncha va ularning turlari. Regression va korrelyatsion tahlil vazifalari va uning bosqichlari. Boshlang‘ich ma’lumotlar asosida to‘g‘ri chizikli regressiya tenglamasi va korrelyasiya koyeffitsiyentini aniqlash. Ranglar korrelyasiya koyeffitsiyenti. Guruhlangan ma’lumotlar asosida to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasini aniqlash. Korrelyatsion jadval. Egri chiziqli regressiya tenglamalarini aniqlash. Bir omilli regressiya tenglamasini baholash va tahlil qilish. Ko‘p o‘lchovli korrelyasiya. Muhim va mohiyatli omillarni tanlash. Ko‘p omilli chiziqli regressiya tenglamasini aniqlash. Ko‘p o‘lchovli va xususiy korrelyasiya koyeffitsiyentlari. Ko‘p o‘lchovli regressiya tenglamalarini baholash va tahlil qilish. Bir va ko‘p omilli bog‘lanish natijalarini tarkibiy kismlarga ajratish usullari. Korrelyatsion-regression modellardan iqtisodiy tahlil va istiqbolni baholashda foydalanish yo‘llari. Omillar tahlili va bosh komponentlar usuli. Atributiv belgilar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘lchash usullari.
M10	**Dinamikani statistik o‘rganish usullari.** Dinamika qatorlari, ularning tarkibiy unsurlari va turlari. Dinamika qatorlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlari. Dinamika o‘rtacha ko‘rsatkichlarini xisoblash yo‘llari. Dinamika tendensiyalarini aniklash usullari. Uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash usullari. Davriy yoki siklik tebranishlarni o‘rganish usullari. Mavsumiy tebranishlarni o‘rganish usullari. Dinamika katorlarida avtokorrelyasiyani aniqlash usullari. Dinamika qatorlari korrelyasiyasini o‘lchash usullari.
M11	**Iqtisodiy indekslar.** Indeks so‘zining lugaviy ma’nosi va ko‘llanishi. Iqtisodiy indekslar haqida umumiy tushuncha (mohiyati, ahamiyati va funksiyalari). Indekslarning turlari va tasnifi. Yakka indekslar. Zanjirsimon, o‘zgarmas asosli va o‘zgaruvchan asosli yakka indekslar. Yakka indekslarning xossalari. Vaznsiz umumiy indekslar. Vaznli o‘rtacha indekslar. Bazis vaznli agregat indekslar. Laspeyres indekslari. Joriy vaznli agregat indekslar. Paashe indekslari. Laspeyres va Paashe indekslarining qiyosiy tahlili. Boshqa shakldagi agregat indekslar. Guruhiy indekslar va ularni iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda qo‘llash. O‘zaro bog‘langan indekslar. Sanoat maxsuloti indekslari. Yalpi ichki maxsulot jismoniy hajmi indeksi va deflyatori. Iste’mol narxlari indeksi. Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari indeksi.
M12	**O‘zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negizi** Milliy hisoblar tizimi haqida tushuncha. Iqtisodiy rivojlanish darajasini va dinamikasini xarakterlaydigan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimi. Milliy hisoblar tizimi hisoblamalari tasnifi va ularni tuzish tamoyillari. Ishlab chiqarish hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning uslubiyati. Daromadlarni hosil bo‘lish hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Birlamchi daromadlar tushunchasi. Daromadlarni taqsimlash hisoblamasining ko‘rsatkichlari va uning o‘ziga xos uslubiyati. Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi. Yalpi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash. Mavjud milliy daromad. Sof milliy daromad. Mavjud milliy daromad va sof milliy daromadni hisoblash usullari. Tashqi dunyo bilan aloqalarini xarakterlaydigan tovar va xizmatlar hisoblamasini tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ayrim institusional sektorlar uchun tuziladigan hisoblamalarining o‘ziga xos xususiyatlari.
M13	**Aholi statistikasi** Aholi soni va tarkibini statistik o‘rganish. Doimiy va mavjud aholi soni, ular orasidagi bog‘lanish. Aholi sonini aniqlash, o‘rtacha aholi sonini hisoblash usullari. Aholi soni dinamikasi ko‘rsatkichlari. Aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma’lumotli darajasi va boshqa belgilar bo‘yicha o‘rganish. Aholini hududlar bo‘yicha joylashishi. Shahar va qishloq aholisi. Aholining tabiiy va mexanik harakati statistikasi. Aholining tabiiy va mexanik harakati haqida tushuncha. Aholining tabiiy harakatini

	ifodalovchi absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar: tug'ilishi, vafot etishi, tabiiy o'sishi. Tug'ilish va vafot etishning umumiy va maxsus koeffitsiyentlari. Aholi migratsiyasi turlari. Aholi migratsiyasining absolyut va nisbiy ko'rsatkichlari. Hozirgi kundagi aholi mexanik harakatining o'ziga xos xususiyatlari. Nikohdan o'tish va undan o'chish ko'rsatkichlari. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi va kelajakdagi aholi sonini hisoblash usullari. Aholi haqidagi statistik ma'lumot manbalari.
M14	**Mehnat bozori statistikasi** Iqtisodiy faol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Bandlilik va ishsizlik statistikasi. Iqtisodiy nofaol aholi tushunchasi. Uning soni va tarkibi. Mehnat resurslari statistikasi. Mehnat resurslari sonini hisoblash usullari. Mehnat resurslari balansi. Uning sxemasi va ko'rsatkichlar tizimi, uni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning faoliyat sohasi, mulk formasi, xo'jalik yuritish formasi va mamlakat hududlari bo'yicha taqsimlanishini statistic o'rganish. Korxona va tashkilotlarning xodimlarini asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatlari bo'yicha taqsimlanishi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardagi asosiy xodimlar kategoriyalari. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar soni. Ro'yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni. Smenalik koeffitsiyenti, smenalik rejimidan foydalanish statistikasi. Ish joyi va smenasidan to'liq foydalanish ko'rsatkichi. Ish vaqtini yo'qotishlar.
M15	**Milliy boylik statistikasi** Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalari. Milliy boylik tarkibi. Milliy mulk va tabiiyresurslar tarkibi. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibi. Aktiv va passivlar balansi. Tabiiy resurslar tarkibi. Yer fondini statistik o'rganish. Foydali qazilma boyliklari, suv va gidroenergik resurslarni statistik o'rganish. Milliy boylik elementlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o'rganish. Uskunalarning smenalik koeffitsiyenti. Ayrim tarmoq uskunalaridan foydalanish ko'rsatkichlarining o'ziga xos xususiyatlari. Material aylanma mablag'lar (aylanma fondlar, aylanma kapital) haqida tushuncha va bu sohada statistikaning vazifalari. Mahsulot, aylanma mablag'lar hajmi va tarkibini statistik o'rganish. Ulardan foydalanish darajasini tahlil qilish usullari. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlari mahsulot zaxiralari bilan ta'minlanganlik darajasi. Material oborot mablag'larining aylanish ko'rsatkichlari.
M16	**Yalpi ichki mahsulot statistikasi** Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari. Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash. Yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichini. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash usulida hisoblash. Yalpi ichki mahsulotni oxirgi foydalanish usulida hisoblash. Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish. Material aylanma mablag'lar zahiralarining ortishi.

	Tovar va xizmatlarning sof eksporti. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Ayrim tarmoqlar mahsulotlari hajmini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.
M17	**Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari** Dj Xiksning daromad haqidagi ta'limoti. Yangi MHTda Dj Xiksning ta'limotiga kiritilgan aniqliklar. Nominal va real daromad. Daromad hajmiga ta'sir etuvchi ekstensiv va intensiv omillar. Milliy daromadni taqsimlash, qayta 7 taqsimlash va oxirgi foydalanish statistikasi. Yalpi milliy daromad, sof milliy mavjud daromad, yalpi milliy jamg'arish, sof milliy jamg'arish ko'rsatkichlari statistikasi.
M18	**Moliya-kredit tizimi statistikasi** Davlat byudjeti statistikasining vazifalari. Davlat byudjeti. Davlat byudjeti daromadlari va harajatlari tarkibi. Byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari. Byudjet daromadlari tarkibi. Byudjet harajatlari btarkibi. Bank statistikasining asosiy ko'rsatkichlari. Bank tizimi. Bank aktivlari va resurslari. Bank depozitlari. Pul muomalasi statistikasi. Pul muomalasini ifodalaydigan statistik ko'rsatkichlar tizimi. Pul massasi. Pul massasining aylanish tezligi. To'lov balansi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
S1	Statistika fanining predmeti va uslubi.
S2	Statistik kuzatish uslubiyati.
S3	Statistik jamlash va guruhlash.
S4	Statistik jadval va grafikalar.
S5	Statistik ko'rsatkichlar.
S6	O'rtacha miqdorlar.
S7	Variasiya ko'rsatkichlari.
S8	Tanlama kuzatish.
S9	Regression va korrelyatsion tahlil.
S10	Dinamikani statistik o'rganish usullari.
S11	Iqtisodiy indekslar.

S12	O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negzi.
S13	Aholi statistikasi.
S14	Mehnat bozori statistikasi.
S15	Milliy boylik statistikasi.
S16	Yalpi ichki mahsulot statistikasi.
S17	Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari
S18	Moliya-kredit tizimi statistikasi

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Statistika" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Statistika faniga kirish
2.	Statistika fanining predmeti va uslubi.
3.	Statistik kuzatish uslubiyati.
4.	Statistik jamlash va guruhlash.
5.	Statistik jadval va grafikalar.
6.	Statistik ko'rsatkichlar.
7.	O'rtacha miqdorlar.
8.	Variasiya ko'rsatkichlari.
9.	Tanlama kuzatish.
10.	Regression va korrelyatsion tahlil.
11.	Dinamikani statistik o'rganish usullari.
12.	Iqtisodiy indekslar.
13.	O'zbekiston milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy statistikaning uslubiy negzi.
14.	Aholi statistikasi.
15.	Mehnat bozori statistikasi.
16.	Milliy boylik statistikasi.
17.	Yalpi ichki mahsulot statistikasi.
18.	Milliy daromad va milliy hisoblar tizimidagi boshqa daromad ko'rsatkichlari
19.	Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi.
20.	Moliya-kredit tizimi statistikasi.
21.	Aholi turmush darajasi statistikasi.

"Statistika" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni 10 topshirishi zarur. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** - statistik masalalarni yechish, statistik tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qilish haqida **tasavvurga ega bo'lishi kerak; (bilim)** - masalalar ustida statistik kuzatish tashkil etish, statistik jadval va grafiklarni tushunarli qilib tuzish, guruhlash turlari, MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko'rsatkichlarini aniqlash haqida **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)** - mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni bilish, o'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlarini o'rganishi, milliy boylik hajmi va uning indeksini hisoblash, milliy daromadni taqsimlash usullarini **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)** - mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)**
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Statistika. darslik. Toshkent – 2019 Soatov N.M., Nabiyev X., Ayubjonov A.H.. – C.:, 2019. – 550 bet
2. Statistika: Darslik / X.A.Shodiyev, I.H.Habibullayev; - T.: "Iqtisod- moliya", 2018. - 448 b..
3. Statistika: darslik/ X.A. Shadiyev, I.Xabibullayev, B. Maxmudov, N. Rashitova, M. Umarova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi; - Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2013. - 384 b.

	4. Ernazarov O.E., Statistika. Darslik. – Samarqand.: SamDU tahririy nashryoti, 2024. – 396 bet. **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:** 5. Soatov N.M., Nabiyev X., Ayubjonov A.H. Statistika. Darslik. –T.: TDIU, 2019. -815 bet. 6. Shadiyev X.A., Habibullayev I., Rashitova N.X., Xo'jaqulov X.Dj., Qoraboyev A.R., Abdullayev S., Xodjayeva M.N., Ismoilov G'.I. "Statistika bo'uicha praktikum". –T.: "Iqtisod-moliya". 2015. 336 bet. 7. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullayev S.N. "Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma". –T.: TDIU, 2016. -180 bet. **AXBOROT MANBAALARI** 8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. 9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 10. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 11. http://www.ziyonet.uz/
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Qushatov R.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** **Amirov A.M.** – Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti PhD., (tel: +998 91 539 35 89). **Zaynalov J.R** – SamISI "Moliya" kafedrasi mudiri i.f.d., professor. (tel:(97 925 03 33).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais: Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **Z.T.Bakayev**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslarini boshqarish fakulteti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti Qushatov R.H muallifligida tayyorlangan "Statistika" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60310500-Raqamli iqtisodiyot, 6030100-Iqtisodiyot, 60310700 – Bank ishi va audit bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Statistika" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi bozor munosabatlari sharoitida talabalarga statistikaning metodi va amaliyoti sohasida kasbiy bilimlar va zaruriy o 'quv malakasini shakillantirishdir.

Fan dasturining asosiy vazifasi statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va ro 'li haqida chuqur bilimga va tasavvurga ega bo 'lish, statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o 'rganish, O 'zbekistonda davlat statistikasining tashkil etish, uning "davlat statistikasi haqida"gi qonundan kelib chiqadigan vazifalari va huquqlarini bilish, statistik kuzatish mohiyati, turlari dasturi – uslubiy va tashkiliy masalalarni o 'rganish, statistik kuzatish ma'lumotlarni svodkalash va guruhlash hamda uning natijalarini statistik jadvallarda ifodalash, taqsimot qatorlarini tuzish va tahlil qilish usullarini egallash, statistik ko 'rsatkichlar, ularning turlari va shakillarini taqqoslash yo'llari, makro va mikro iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida chuqur tasavvurga ega bo'lish, tanlama kuzatishning mohiyati, nazariy va amaliy masalalari tanlamaning reprezentativligini baholash yo'llarini bilish, ilmiy va tajribaviy gepotezalarni hisoblash to 'g 'risida tasavvurga ega bo 'lishini ta'minlash hamda ular asosida xulosalar chiqarish bo'yicha ko 'nikmalar xosil qilishdan iborat.

Fan dasturida fan bo 'yicha talabalarning bilim, ko 'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo 'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60310500-Raqamli iqtisodiyot, 6030100-Iqtisodiyot, 60310700 – Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalinishga tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasi mudiri **i.f.d., prof J.R.Zaynalov**